



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING JAMIYATGA IJTIMOYILASHUVIDA ANIQLIK VA NOANIQLIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI**

**Abduvaliyev Fathulla**

Toshkent davlat texnika universiteti. Mustaqil tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Maqolada muallif yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuv muammolarini tahlil qilib, xalq ta'limi tizimi va o'rta maktablarda inson kapitalini baholashda aniqlik va noaniqlik xususiyatlarining ijtimoiy tasniflariga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lim va bilim sohasida ziyolilik salohiyatining tarixiy shakllanish bosqichlari, uning ilmiy asoslari va davriy ahamiyati, shuningdek, vujudga kelish mezonlari hamda ijtimoiy sabablari ilmiy jihatdan tasniflanadi. Muammoning kengayib, ommaviylashib borishi natijasida xalq ta'limi tizimiga oid ilmiy bahsmunozaralar tadqiqotning asosiy yo'nalishiga aylanadi. Muallif zamonaviy davrda jahon hamjamiyati, jumladan MDH mamlakatlarida ilmga asoslangan iqtisodiyot, nanoteknologiyalarni joriy etish va innovatsion rivojlanish masalalarini sotsiologik nuqtai nazardan tizimli tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** yuqori sinf o'quvchisi, ijtimoiylashuv, aniqlik xususiyati, noaniqlik xususiyati, sotsiologik tadqiqotlar, globallashuv, integratsiya, xususiy ta'lim, ta'lim monitoringi.

## **ВЛИЯНИЕ ОПРЕДЕЛЁННОСТИ И НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ СТАРШЕКЛАССНИКОВ В ОБЩЕСТВЕ**

**Абдувалиев Фатхулла**

Ташкентский государственный технический университет. Независимый исследователь.

### **Аннотация**

В статье автор анализирует проблемы социализации старшеклассников, уделяя особое внимание социальным классификациям характеристик определённости и неопределённости в системе народного образования и средних школах при оценке человеческого капитала. Рассматриваются исторические этапы формирования интеллектуального потенциала в сфере образования, его научные основы и циклическое значение, а также критерии возникновения и социальные причины. По мере расширения и массового характера проблемы научные дискуссии по вопросам народного образования становятся центральной темой исследования. Автор также проводит системный социологический анализ формирования экономики знаний, внедрения нанотехнологий и инновационного развития в странах мирового сообщества, включая страны СНГ.

**Ключевые слова:** старшеклассник, социализация, определённость, неопределённость, социологические исследования, глобализация, интеграция, частное образование, мониторинг образования.

## **THE IMPACT OF CERTAINTY AND UNCERTAINTY ON THE SOCIALIZATION OF HIGH SCHOOL STUDENTS IN SOCIETY**

**Abduvaliyev Fathulla**

Tashkent State Technical University. Independent researcher

### **Abstract**

The article analyzes the problems of socialization of high school students, focusing on the social classifications of certainty and uncertainty in evaluating human capital within the public education system and secondary schools. It examines the historical stages of the development of intellectual potential in education, its scientific foundations, cyclical significance, as well as the criteria and social causes of its emergence. As the scale of the problem expands and becomes more

widespread, academic debates on public education issues become a central theme of research. The author also provides a systematic sociological analysis of the development of knowledge-based economies, the implementation of nanotechnologies, and innovation-driven growth in the global community, including CIS countries.

**Keywords:** high school student, socialization, certainty, uncertainty, sociological research, globalization, integration, private education, education monitoring.

Globalashgan dunyoda ijtimoiy voqelik turli xil tahdidlar bilan bog‘liq hodisalarni izchil yoritish asosida mustahkamlanmoqda. Shu asosda mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yuqori kasbiy malakaga ega mutaxassislarini tayyorlash, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari huquq hamda manfaatlarini himoya qilish tizimi mustahkamlandi va bu borada olib borilayotgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Yoshlar ijtimoiylashuvining sotsial voqeliklari va u bilan bog‘liq tasniflarga nisbatan an’anaviy qarash hamda baholash prognozlarini o‘rnini yangicha ilmiy yondashuvlar asosida xulosa chiqaradigan dunyoqarash egallamoqda. Bunday yangicha ilmiy yondashuv zarurati bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichida mamlakatning demokratik siyosati va jamiyat a‘zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlanib, jadal sur‘atlarda takomillashib bormoqda.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, yosh davriga alohida e‘tibor qaratish yoshlarning nafaqat hayot yo‘lini aks ettiradi, balki u ijtimoiy hayotdagi sotsi madaniy jihatlarni ham namoyon etadi. Kogort tadqiqotlar (ya‘ni bir yilda tug‘ilgan, bir jins, bir millat va boshqa umumiy belgilarga ega vakillar orasida o‘tkaziladigan tadqiqotlar) [1; 44] asosida 14–30 yoshlar oralig‘ida tadqiqotchi ularda o‘spirinlik davrida yuzaga keladigan o‘ziga xos submadaniyatlar, universitetda o‘qish yoki biron-bir korxonaga ishga joylashish, oila qurish va uni ta‘minlash chog‘ida yuzaga keladigan murakkabliklarni o‘rganish uchun tizimli tadqiqot ishlarini olib boradi. Mavjud statistik ma‘lumotlar asosida yoshlarning sotsial jihatdan shakllanib borishida yuzaga keladigan noaniqliklarning asosiy mezonini 12–14 yosh va 16–18 yoshlar oralig‘ida kechadi. Birinchi bosqich tanada keskin bioo‘zgarishlar kechishi bilan izohlansa, ikkinchisi jamiyatga nisbatan ijtimoiylashuvdagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq [2; 15]. Bunda an’anaviy jamiyat xususiyatlaridan kelib chiqib, uchinchi mezon, ya‘ni 21–25 yosh oralig‘idagi bioijtimoiylashuv jarayonida kechadigan noaniqliklarni tadqiq etish taklifini ilgari surmoqchimiz. Tibbiyot nuqtai nazaridan qaraganda, tananing shakllanib borishi 25 yoshgacha davom etadi. Ammo aksariyat an’anaviy jamiyatlarda oila-nikoh munosabatlariga erta kirishish natijasida organizmning shu yoshgacha bo‘lgan “tarbiya”si ancha erta to‘xtaydi. Masalan, uzoq yillardan beri o‘smir va o‘spirinlarimizning sport, san‘at va boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlarini yetuklik davridagi yoshlar takrorlay olmayptilar. Bizning nazarimizda, an’anaviylikdagi murakkab qadriyatlar 20 yoshdan keyin sotsial hayotda birdaniga murakkablashib ketadi. Ular ijtimoiylashuvdagi noaniqliklar negizidagi ustuvorlik jamiyat–shaxs tizimidan asta-sekin jamiyat–avlod tizimiga qarab o‘zgarib boradi. Yosh kattayib, ulg‘ayib borgan sari aksariyat kishilarda balans to‘liq jamiyat–avlod tizimiga o‘tib boradi. Bu esa, o‘z navbatida, boshqa tarmoqlar, jumladan, fan va ta‘lim sohasida ham yuqori sur‘atdagi professionalizmning shakllanishiga jiddiy ta‘sir qiladi.

Ingliz sotsiolog-tadqiqotchisi Z. Bauman zamonaviy jamiyatda yoshlarning hayot yo‘llaridagi o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi noaniqliklarni postmodern tamoyili bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra:

- madaniyatdagi plyuralizm (rang-baranglik) bir vaqtning o‘zida ko‘plab jabhalarni, xususan, qadriyatlar, mafkura, hayot shakli, turmush tarzi va shu kabilarni qamrab oladi;
- doimiy vujudga keladigan o‘zgarishlar;
- ommaviy axborot vositalari va ular mahsulotlarining yetakchilik qilishi;
- mavjud voqelikdagi asosiy omillarni qamrab ololmaslik oqibatida ramziy belgilarga ehtiyoj sezish [3; 54–56].

Hayotning yuqori sur'atda tezlashib ketishi yoshlar turmush tarzida sotsial noaniqliklarning ko'payishiga va uning natijasida ularning o'zlarini xavf ostiga qo'yishi kuchayib borishiga olib kelmoqda. Sotsiologlar "noaniqlik" tushunchasini quyidagicha izohlaydilar: "Tizimli yondashuv (T. Parsons nazariyasi)dan kelib chiqib, noaniqlik sotsial tizimda vujudga keladigan o'zaro faoliyat elementlaridagi munosabatlarni aks ettiradi" [4; 23]. Noaniqlikni anglash uchun aniqlik elementini V. Gott va A. Ursul aniqlik tasnifi bilan qiyoslaydilar: "Agar aniqlik holati shaxslar orasida bir-biriga nisbatan mustaqil, keskin farq qiluvchi sotsial va ruhiy chegaralar bilan ajralib tursa, noaniqlikda mavjud obyekt yoki hodisa jarayonlarida qaramlilik, bo'ysunishlik kuzatiladi" [5; 26–27].

Chunki migratsiya jarayonlarining har qanday shaklini chuqur anglash uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlardagi barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillardan biri sanaladi. Ko'pqirrali dunyoning intellektual qiyofasi uzoq yillardan beri "aqlli" migratsiya sifatida o'z manzarasini yuqori sifatli ishchi kuchi ko'rinishida namoyon etayotgani bilan ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'sir o'tkazmoqda. Shuningdek, zamonaviy migratsiya jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va uning oqibatida yuzaga kelayotgan global muammolar jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, xususan, milliy mentalitet va identiklikdagi o'zgaruvchan hodisalarni o'rganishga majbur qilmoqda. Yoshlar intellektual migratsiyasining turli xil shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'lishi, uning yoshlar, xususan, talabalar hayotida "xalqaro migrant", "intellektual sirkulyatsiya", "intellektual oqim" ko'rsatkichlari orqali ijtimoiy muhitning harakatlanuvchi, mobil hodisasi sifatida o'zaro ilmiy va madaniy integratsiya kontekstida sodir bo'layotganligi asoslangan.

Dunyo hamjamiyatida yoshlar va ta'lim sifati muammolari ko'laminig ortib borishi bilan, shaxs rivojlanishining mo'ljal qadriyatlarini aniqlashtirish o'z shakli va mazmuniga ko'ra ijtimoiy-madaniy qiyofa hamda kayfiyatni o'rganishga bo'lgan talab xususiyatlarini ham keskin o'zgartirib bormoqda. Muammoni o'rganish yuzasidan bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari ta'lim jarayonlari, yoshlar ijtimoiy qiyofasi va kayfiyati, maktablarda yuqori sinf o'quvchisining turmush tarzi va uning jismoniy-fiziologik o'zgarishlar jarayonidagi o'tish davri inqirozlarini chetlab o'tish uchun kechirayotgan ijtimoiylashuv hamda yoshlarning mo'ljalli qadriyatlariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.


XX asrning 60–80-yillari oralig'ida ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada uning faoliyatida yangi tashabbuslar va g'oyalarning paydo bo'lishi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni samarali tashkil etishga ehtiyoj keng ko'lamda oshdi. Innovatsion va texnik imkoniyatlarning ta'lim-tarbiya jarayonida faollashuvi mavjud an'anaviy boshqaruv tizimining nomukammal tomonlarini yaqqol ko'rsatib berdi hamda muammolar yechimini topish uchun ta'lim jarayonidagi tahliliy monitoringni amaliyotda joriy etishga ilmiy-prognostik zaruratni yuzaga keltirdi. Keyingi yillarda xorijiy tajriba imkoniyat va yutuqlarini tizimli ravishda ilmiy tadqiqotlar shaklida amaliyotga joriy etish natijasida ijtimoiy, xususan, sotsiologik monitoringning muayyan pedagogik hodisalarni o'rganish va tadqiq etishga yo'naltirilgan davomiylik va uzluksizlik, ta'lim-tarbiya faoliyatini maqsadlar asosida tahliliy kuzatib borishning tizimli va izchil xususiyatlari hamda kundalik o'zgarib borish dinamikasini aniqlashning sifatli namoyon bo'lishiga xos xususiyatlariga aniqliklar kiritildi.

Ma'lumki, ta'lim tizimini monitoring qilishning ijtimoiy-tarixiy shartlari mavjud. Unda birlamchi sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish, natijalarni tahlil etish va ilmiy prognozini shakllantirish bo'yicha ilmiy tajriba, tizimli-tartibli ravishda qiyosiy statistik tadqiqotlarni o'tkazish, ta'limni boshqarishning axboriy, tahliliy, baholovchi, prognoz qiluvchi va yo'naltiruvchi funksiyalari orasida ilmiy bog'liqlikni ta'minlash kabilarni kiritish mumkin.

Ta'lim sifatini kompleks monitoring qilish talabalar, o'qitish jarayoni, ta'lim muassasalari va ta'lim tizimlarini o'z ichiga olishi mumkin. Uni baholash mavzusi, avvalo, erishilgan darajaning me'yorga muvofiqligi o'lchovi sifatida talabalarning ta'lim yutuqlari — davlat ta'lim standartlari, statistika normalari va, shuningdek, talabgorlar so'rovlariga qaraladi [6; 162].

Ta'lim yutuqlarida erishilgan sifatni tekshirish, monitoring qilish va o'lchash asosan miqdoriy ma'lumotlarni, shu jumladan, uzoq muddatli kuzatuv va statistik natijalar asosida ta'lim tizimi natijalarini olishni nazarda tutadi. Bunday ma'lumotlar asosida sifatli tahlil, xulosalarni shakllantirish, o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini izlash, qabul qilish va amalga oshirish shartlari yuzaga keladi. Insoniyat dunyosi esa bir butunlik va birlik xususiyatlariga ega bo'lib bormoqda. Universal insoniy ehtiyojlar va unda hayot kechirishni ta'minlash muammolari, insonlar tarixiy taqdiri va xavfsizligining umumiyiligini anglab yetish uchun tobora ko'proq imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Bu integratsion, ya'ni markazga intiluvchi jarayon bo'lib, uning kechishida zamonaviy inson turmush tarzi dunyosi global tus olmoqda. Ikkinchi tomondan esa milliy va individual o'z-o'zini anglash, millatlarning ozod bo'lish jarayonlarining o'sib borishi ta'sirida alohida sotsiumlarning maydalashishi va bo'linib ketishi hamda ijtimoiy hayot subyektlarining ajralishi kuzatilmoqda [7; 143].

Bitiruvchi sinf o'quvchilarining ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini baholash uchun Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi 31 ta o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida "lokal", ya'ni mahalliy shart-sharoitlarga asoslangan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazdik. Mazkur monografiyaning amaliy-




empirik bazasini ushbu tadqiqotlar natijalari va ularning tahlillari tashkil etadi.

**1-rasm: "Aytingchi, hozirgi kunda maktablarda ta'lim tizimini qanday baholaysiz?"**

"Aytingchi, hozirgi kunda maktablarda ta'lim tizimini qanday baholaysiz?" degan savolga jami respondentlarning 27,7 foizi "Juda yaxshi va sifatli ta'lim beriladi", 26,6 foizi esa "Qaysidir ma'noda yaxshi bilim beriladi" deb javob bergan. Bu foiz ko'rsatkichlari ijobiy mazmun kasb etib, taxminan 50–55 foizni tashkil etadi. Shuningdek, respondentlarning 9,1 foizi ushbu savolga "O'rtacha bilim beriladi va bunda maktab jamoasi aybdor", yana shuncha (9,1 foiz) respondentlar "Qoniqarsiz, chunki so'nggi yillarda ta'limga maktablarda umuman qiziqish yo'qoldi", yana shuncha (9,1 foiz) ishtirokchilar esa "O'rtacha bilim oldim va bunga o'zim aybdorman" deb javob bergan. Tadqiqotga jalb etilgan aholining 3,8 foizi esa "Bizning oilamiz uchun dunyoviy ilmlarning qizig'i yo'q, asosiysi insonning iymonli-e'tiqodli bo'lishi muhim" degan javobni belgilagan bo'lsa, 10,4 foiz kishi ushbu savolning javob variantlarini ochiq qoldirgan.

Ushbu savol o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi ikki yil ichida tuman hokimligining tashabbusi va bevosita qo'llab-quvvatlashi natijasida uning barcha hududidagi o'rta maktablar, ko'plab mahallalar va to'rta oilaviy poliklinikaning ishchi-xodimlari, shuningdek, oilalar o'rtasida olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida maktablardagi ta'lim tizimida jiddiy muammoli holat yuzaga kelganiga guvoh bo'lindi. Ushbu muammolar yaqin yillar ichida paydo bo'lmagan, balki uning ildizlari uzoq yillar davomida shakllangan bo'lib, o'zida bir nechta avlodning salbiy, bir tomonlama va ishonchsizlik kayfiyatidagi ruhiyatini mujassam etgan.

Muammoning yechimini topish uchun uzoq yillar davomida ham mutasaddilar, ham oddiy fuqarolar bir-birini aybdor qilish bilan o‘zlarini “ovuntirib” kelgan. “Sen tegmasang — men tegmayman” qabilida faoliyat yuritilar ekan, ta’lim sifati, uning nazorati, o‘quvchilarning davomati, diniy e’tiqod va dunyoqarashdagi bir tomonlamalik, o‘quvchilardagi mavjud ijtimoiy-psixologik qiyofani o‘rganish, ularning hayotiy pozitsiyalari va motivatsiyasi nimalarda o‘z aksini topishi mumkinligi kabi masalalar uzoq yillar davomida yashirin qolib ketgan.



**2-rasm: “Nima deb o‘ylaysiz, farzandingiz o‘z kelajakdagi hayot yo‘lini tanlash (kasb, uzluksiz ta’lim va boshqalar) haqida qanchalik mustaqil ravishda qaror qabul qila oladi?”**

“Nima deb o‘ylaysiz, farzandingiz o‘z kelajakdagi hayot yo‘lini tanlash (kasb, uzluksiz ta’lim va boshqalar) haqida qanchalik mustaqil ravishda qaror qabul qila oladi?” degan savolga tadqiqotda qatnashganlarning 40,9 foizi “Farzandim har tomonlama erkin va o‘zi mustaqil ravishda qaror qabul qila oladi”, respondentlarning 18,7 foizi esa “Hayot juda murakkab, farzandim bu hayotda o‘z irodasi, qobiliyati va iste’dodi bilan maqsadiga erishadi” degan javob variantlarini qayd etgan. Bu javoblar taxminan 60–62 foizni tashkil etib, ijobiy mazmuni aks ettiradi.

Tadqiqotga jalb etilgan 13,5 foiz respondent “Farzandimni Allohga topshirganman, uning o‘zi yo‘l ko‘rsatadi va qo‘llaydi”, qatnashchilarning 12,1 foizi “Farzandim men uchun hamma vaqt ‘bola’, uning to‘liq mustaqil qaror qabul qila olishiga unchalik ishonmayman”, fuqarolarning 3,3 foizi esa “Farzandimiz uchun biz, ota-onalar, qaror qabul qilib bo‘ldik, u albatta biz aytgan yo‘lni tanlab, adashmaydi”, deb javob bergan. Shuningdek, 9,6 foiz so‘rovnomani to‘ldirishda ishtirok etganlar “Javob berishga qiynalaman” deb fikr bildirgan. Umuman olganda, farzandining kelajagi va istiqboliga ikkilanib qaraydigan va u qadar ham ishonmaydigan aholi taxminan 35–40 foizni tashkil etadi. Bu juda katta ko‘rsatkichdir. Avvalambor, ota-onalarning o‘zlari farzandlarini hayotda bir tomonlama, tushunarsiz va mazmunsiz qiyinchiliklarga o‘rgatib o‘stiradi. Butun globallashtirilgan dunyoda ijtimoiy hayotga sun’iy intellekt va robotlashgan olam raqobatlashish uchun kirib kelayotgan bir paytda, ta’kidlash mumkinki, ushbu holat juda tashvishlidir. Tartibsiz tug‘ilishlar, murakkab va sifatsiz demografik o‘sish bir tomondan, o‘z kelajagini belgilash uchun zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarning yetishmasligi ikkinchi tomondan, murakkab va stressga boy dunyo sharoitida “yoshlarning kelajak uchun mo‘ljal olish motivatsiyalari” alohida ijtimoiy-psixologik muammo sifatida yangicha yondashuvlar bilan tadqiq etilishini talab qiladi.


O‘rta ta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ifodalovchi barcha jihatlarni umumiy tavsiflovchi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar orqali tahlil qilish mumkin. Bugungi kunda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifati va o‘quvchilar xulq-atvorini

ifodalovchi bir qator qadriyatlar tizimi ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda barcha ta‘lim sohalarida dolzarb masala hisoblangan **dress-code**, ya‘ni ta‘lim muassasasida kiyinish, tashqi ko‘rinish va xulq-atvorga qo‘yilayotgan talablar ko‘plab munozara va bahslarga sabab bo‘lmoqda. Insonning ijtimoiy mohiyati uning hayot faoliyatining deyarli barcha jabhalarida namoyon bo‘ladi, ulardan biri kiyinishdir.

Yuksak maqomli ish va manfaatli sherik uchun yuqori darajadagi raqobat sharoitida nafaqat san‘at sohasida, balki biznes va siyosatda ham shaxs va professional sifatida o‘ziga e‘tiborni tortish maqsadida turli xil vositalardan, jumladan, kiyinishdan ham foydalaniladi. Kiyinish muayyan shaxs, hamjamiyat imijining ham, umuman davlat imijining ham bir qismi hisoblanadi. Tashqi muhitdan himoyalanihga bo‘lgan amaliy ehtiyojdan paydo bo‘lib, kiyinish darhol nafaqat estetik, balki axloqiy funksiyalarga ham ega bo‘ldi. Kiyinish insonning go‘zallikka intilishini, shuningdek, o‘ziga va atrofidagilarga bo‘lgan munosabatini namoyon etadi. Insonning kiyimi uning atrofidagilar tomonidan qabul qilinishiga ta‘sir ko‘rsatadi, uning madaniy darajasi (jumladan, uslubi va didi), ijtimoiy maqomi va moddiy darajasidan dalolat beradi. Kiyinish madaniyati insonning umumiy madaniyati, uning ijtimoiy mohiyati namoyon bo‘lishining tarkibiy qismlaridan biri, o‘z individualligini ifodalash usuli hisoblanadi.

Ta‘lim — jamiyat hayotining muhim jabhalaridan bo‘lib, inson ijtimoiylashuvining yetakchi omillari va institutlaridan biridir. O‘zbekistonda ta‘lim tizimining rivojlanishi davlatning ijtimoiy siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tirof etilgan. V. Dalning ta‘riflashicha, ma‘lumotlilik (aql va axloq) o‘sib kelayotgan insonga ruhiy, aqliy va ma‘naviy qiyofa bag‘ishlashning yaxlit jarayonini anglatadi. L. Shtileva esa ta‘lim va uning institutlarining maqsad hamda vazifalari, birinchi qarashda ko‘ringanidek, unchalik oson va bir xil ma‘noga ega emas, deya ta‘kidlaydi. Bir tomondan, uning maqsadi — insonga jamiyatga moslashishga, uning qoidalarini o‘zlashtirishga, qonunlariga muvofiq yashashga yordam berish va hokazo. Boshqa tomondan, ta‘limning maqsadi keng ma‘noda — insonga o‘z salohiyatini namoyon etishiga, o‘z imkoniyatlari va ichki resurslaridan imkon qadar to‘liq foydalanib, ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashishdir. Ta‘lim tizimi ijtimoiylashtiruvchi institut bo‘lib, uning har bir bosqichi jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir. Bugungi kunda xalq ta‘limi tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri yuqori saviyali ziyolilarni shakllantirishdir.

Tadqiqotlar jarayonida kuzatilgani — o‘quvchilarning hali ham katta qismida ikkilanishlar saqlanib qolayotgani, kelajakda o‘z qadriyatli mo‘ljallarini qaysi tomonga qarab yo‘naltirish bo‘yicha ikkilanayotganidir. Sotsiologik tahlillar natijasida bitiruvchi sinf o‘quvchilarida jamiyatdan begonalashuv, o‘zidan qoniqmaslik, atrof-muhitdan hadiksirash, doimiy oilaviy nizolar va hotirjamlikning yo‘qligi, moliyaviy yetishmovchilik, dars qilish va bilim olish uchun imkoniyatlar yaratilmaganligi, zo‘riqishlar va kamsitilishlarning yopiq shaklda mavjudligi miqdori va ijtimoiy-psixologik turlari ko‘payib borayotganligi aniqlandi.




**3-rasm: “Sizningcha, yuqori sinf o‘quvchilarining hozirgi avlodi mustaqil ‘kattalar’ hayotiga tayyormi?”**

“Sizningcha, yuqori sinf o‘quvchilarining hozirgi avlodi mustaqil ‘kattalar’ hayotiga tayyormi?” degan savolga jami respondentlarning 44,8 foizi “Menimcha, yo‘q” javobini belgilagan bo‘lsa, 17,1 foiz respondent “Yo‘q” degan javobni qayd etgan. Umuman olganda, tadqiqotda ishtirok etgan jami o‘qituvchilarning qariyb 65,0 foizi bugungi yuqori sinf o‘quvchilarining mustaqil hayotga tayyorligiga katta ishonch bildirmaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, taxminan 25,5 foiz o‘qituvchilar o‘z shogirdlarining mustaqil hayotga tayyor ekanini bildirgan. Albatta, ushbu masala jamiyat a‘zolari, mas’ul shaxslar va yoshlar tashkilotlarini jiddiy o‘ylantirishi kerak.

Biz har bir tadqiqotdan keyingi tadqiqotlarga o‘tganimiz sari bir xulosaga tobora qattiqroq ishonch hosil qilmoqdamiz: ta’lim tizimi maktablarda jiddiy islohotlarga ehtiyoj sezmoqda. Ayni paytda aybdor izlash va kimnidir jazolash hech qanday samara bermaydi. Ushbu muammoning ildizi uzoq 15–20 yilliklarga taqaladi. Bunda oliy ta’limga kirish jarayonidagi uzoq yillar davom etgan korrupsiya, ta’lim sifati va uni moliyalashtirishga bo‘lgan e‘tiborsizlik, tanish-bilishchilik va mas’uliyatsizlik, har besh yilda o‘zini oqlasa-oqlamasa yangicha islohotlarga o‘taverish kabi omillarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Bunday shart-sharoitlarda farzandlarimizni hech qanday kreativ va tanqidiy mushohada bilan fikrlashga o‘rgata olmaymiz. Bugungi kundagi o‘zbek mentaliteti o‘zini o‘zi anglash emas, balki o‘ziga o‘zi hisobot beradigan ruhiyat bilan shakllanar ekan, muammo ustiga muammo ko‘payaveradi.



**4-rasm: “Sizning bugungi tengdoshlaringiz qanchalik bilim olishga qiziqadi?”**

“Sizning bugungi tengdoshlaringiz qanchalik bilim olishga qiziqadi?” degan savolda respondentlarga uchtagacha javob variantini tanlash imkoni berilgan va unda o‘quvchilarning bir-birlarini kuzatish hamda o‘rganish imkoniyatlari tahlil qilingan. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 25,8 foiz o‘quvchi o‘z tengdoshlarining internet ma’lumotlariga moyilligini qayd etgan. Kitobxonlik darajasi ushbu savolda 24,5 foizni tashkil etib, avvalgi savollarda keltirilgan jihatlarni takrorlaydi. Ko‘plab maktab o‘quvchilarida yuz berayotgan hodisa, ya’ni repetitorga qatnab, universitet imtihonlariga tayyorlanish ko‘rsatkichi 20,2 foizni tashkil etib, istiqbolda oliy ma’lumotli bo‘lishga qiziqish umumiy ko‘rsatkichda har besh o‘quvchining bittasiga to‘g‘ri keladi. Bizning fikrimizcha, bu boshqa hududlarga nisbatan ancha past ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan intilish ham ancha past bo‘lib, u umumiy ko‘rsatkichda 12,2 foizni tashkil etadi. Ta’kidlash mumkinki, xorijiy tillarni o‘rganish har to‘qqiz o‘quvchidan bittasiga to‘g‘ri keladi. Diniy kitoblarni o‘qishga bo‘lgan moyillik maktab darsliklarini o‘qishga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu holat jami respondentlarning 5,2 foizini tashkil

etmoqda. Bu ko‘rsatkich yillar kesimida o‘sib borishi mumkin.

O‘quvchilarning teatr va muzeylarga, yuqori sinflarni esa yirik kutubxonalarga reja asosida tashrifini ko‘paytirish, adabiyot, san‘at va madaniyat arboblari, taniqli sportchi va olimlar bilan uchrashuvlar sonini oshirish lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarning mutolaa va kitob o‘qish madaniyatini takomillashtirish uchun davlat dasturlarining o‘zi kamlik qilmoqda. Butun jamiyat va sotsiumda “kitobxon millat”, “ziyokor insonlar” kabi g‘oyalarni to‘liq singdirish, ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish zarur bo‘ladi.

Xususan, ta‘lim tizimidagi yoshlarning texnika asrida mutolaa madaniyatini tarkib toptirish ishiga e‘tibor yetarlimi, degan savol ochiq qolmoqda. Vaholanki, mutolaa intensivligini oshirish bilimli, ma‘rifatli insonlarni tarbiyalashning muhim shartidir. Bunga esa mutolaa madaniyatini shakllantirmasdan erishib bo‘lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ядов В. А. Стратегия социологического исследования. Описание, объяснение, понимание социальной реальности. — М.: Добросовет, 1998. — С. 44.
2. Чупров В. И., Зубок Ю. А. Социология молодежи: учебник. — М.: НОРМА, 2011. — С. 15.
3. Bauman Z. Intimations of Postmodernity. — London: Routledge, 1992. — P. 54–56.
4. Чупров В. И., Зубок Ю. А., Певцова Е. А. Молодежь и кризис: диалектика неопределенности и определенности в социальном развитии. — М.: Русское слово, 2009. — С. 23.
5. Чупров В. И., Зубок Ю. А., Певцова Е. А. Молодежь и кризис: диалектика неопределенности и определенности в социальном развитии. — М.: Русское слово, 2009. — С. 26–27.
6. Смелзер Н. Социология / пер. с англ.; науч. ред. В. А. Ядов. — М.: Феникс, 2000. — С. 162.
7. Баранов Е. Г. Нациология — источник конфликтов // Общественные науки и современность. — 1994. — № 5. — С. 143.